




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 79-223-33-29

www.navstat.uz


2022- yil yanvar-sentabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 62 743,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,3 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 50 669,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 80,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 24,6 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 23,7 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 2,2 %, ga oshganidir.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 9,8 % ga pasayish kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 621,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50 669,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,7 % (7,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 82,5 % (85,0 %) va quyi texnologiyalisi – 6,5 % (6,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 77,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 74,9 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,6 % (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 593,1 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 119,6 % ga o'sgan), 185,1 ming tonna azot mochevina (karbamid) (134,5 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (127,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Portlandsement, ming tonna.	2 881,4	2 324,1	- 557,3
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	137,6	185,1	47,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	47 361,0	45 504,6	-1 856,4
Sirka kislotasi, tonna.	3 056,0	3 022,0	-34,0
Kislorod, ming m ³ .	122,2	128,0	5,8
Suvsiz ammiak, ming tonna.	496,1	593,1	97,0
Kalsiy xlorid, ming tonna.	2,4	3,0	0,6
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	3 759,8	4 658,3	898,5

2022-yil yanvar-sentabr oylarida
Kislorod ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 128,0 ming m³ kislorod ishlab chiqarildi. Kislorod ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga ko'paygan.



Argon ishlab chiqarish sanoati


Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 88,8 ming m³ argon ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 (m) ga ko'paygan.



2022-yil yanvar-sentabr oylarida


Azot ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida jami 493,5 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,2 (m) ga ko'paygan.




Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 4 658,3 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,9 % ga ko'paygan.



Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 76,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,0 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 74,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 3,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 37 970,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 86,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 68,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 435,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 452,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 131,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 82,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 966,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 99,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 734,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 164,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,5 % ni, fizik hajm indeksi 133,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 301,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 415,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,6 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 939,5	8 498,9	559,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 069,8	3 375,3	305,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	48 605,4	48 816,0	210,6
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	34 911,4	46 092,7	11 181,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 132,0 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 100,4 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 325,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylari mos davriga nisbatan 106,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 1 358,4 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,2 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Navoiy shahrida (111,3 %), Qiziltepa tumanida (107,8 %) va Navbahor tumanida (107,2 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 40,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 59,2 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 40,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 59,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.







Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 24,1 %, shuningdek, Navoiy shahri 22,4 % ni, Qiziltepa tumani 13,1 % ni, Xatirchi tumani 12,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 27,5 %, shuningdek, Navoiy shahri 20,4 % ni, Xatirchi tumani 11,9 % ni, Navbahor tumani 9,8 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,4 % ni va Qiziltepa tumanida 20,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

1 063,3 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

1 248,3 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr

1 358,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

2020- yil


104,9 %

2021- yil

112,7 %

2022- yil


106,2 %



o'sish sur'ati
mlrd. so'm


Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 85,1 % ni, shuningdek, Karmana tumaniga 9,6 % ni hamda Qiziltepa tumaniga esa 1,6 % ni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (349 528,9 ming so'm), Karmana tumani (45 326,6 ming so'm), Konimex tumani (11 727,9 ming so'm), Qiziltepa (6 547,3 ming so'm) tumanida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Karmana tumani - 6 002,7 ming so'mni, Navoiy shahrida - 4 880,2 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 2 763,5 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 2 669,6 ming so'mni, Nurota tumanida - 2 475,7 ming so'mni tashkil etdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi


Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 265 ta loyiha bo'yicha 2 351,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 10,1 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 212 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 41,0 % ga kamaygan.

Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 942 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 826 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Navoiy shahriga, 647 tasi (16,4 %) Karmana tumaniga, 486 tasi (12,3 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



 yangi tashkil etilgan
 faoliyat yuritayotgan